KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
ISSN: 2181-1695

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

OAK: 01-08/1819/6

www.herald.kokanduni.uz

TURIZM XIZMATLARI EKSPORTINI STATISTIK BAHOLASHNING MAVJUD METODLARI VA ULARNING KAMCHILIKLARI

Sultonova Yulduzxon Kamoldinovna,
Qo‘qon universiteti “Raqamli texnalogiyalar va matematika” kafedrasi i.f.f.d (PhD), v.b dotsent.
sultonovayulduzxon66@gmail.com
https://orcid.org/0000–0003–3664–6973
DOI: https://doi.org/10.54613/2ftsny35

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 2-oktabr 2026-yil
Tasdiqlandi: 5-oktabr 2026-yil
Jurnal soni: 19-B
Maqola raqami: 33

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

turizm xizmatlari eksporti, Turizm yordamchi hisobi (TSA), to‘lov balansi, statistik baholash metodlari, UNWTO, ma’lumotlar ishonchliligi

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada turizm xizmatlari eksportini statistik baholashning O‘zbekistonda va xalqaro amaliyotda qo‘llanilayotgan mavjud metodlari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi – milliy Turizm yordamchi hisobi (TSA) tizimi, to‘lov balansi (BPM6) metodologiyasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) tomonidan qo‘llaniladigan xalqaro standartlarni qiyosiy tahlil qilish va ular o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy tahlil, o‘zaro tekshirish va dinamik qatorlar tahlili usullaridan foydalanilgan. O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasining 2019–2024–yillar uchun TSA ma’lumotlari, UNWTO ma’lumotlar bazasi hamda BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari ko‘rsatkichlari solishtirilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi bo‘yicha bir xil davr uchun milliy va xalqaro manbalarda 0,1–0,3 foiz bandga yetuvchi tafovutlar mavjud, shuningdek milliy statistika tizimida bir xil ko‘rsatkichning turli identifikatsiya kodlari ostida sal farqli qiymatlarda e’lon qilinishi, mintaqaviy kesimda turizmga oid ma’lumotlarning yo‘qligi va ma’lumotlarni e’lon qilishdagi vaqt lagi kabi metodologik kamchiliklar aniqlandi. Tadqiqot xulosalari turizm statistikasi tizimini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 2 October 2026
Approved: 5 October 2026
Volume: 19-B
Paper number: 33

KEYWORDS

tourism services export, Tourism Satellite Account (TSA), balance of payments, statistical assessment methods, UNWTO, data reliability

ANNOTATION

This article analyzes the existing methods for statistically assessing tourism services export applied in Uzbekistan and in international practice. The purpose of the study is to conduct a comparative analysis of the national Tourism Satellite Account (TSA) system, the Balance of Payments methodology (BPM6), and the international standards used by the United Nations World Tourism Organization (UNWTO), and to identify inconsistencies between them. The research methods include comparative analysis, cross–validation, and time–series analysis. Data from the TSA of the State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan for 2019–2024, the UNWTO database, and United Nations Sustainable Development Goal indicator 8.9.1 were compared. The results show that, for the share of tourism in gross domestic product over the same period, discrepancies of 0.1–0.3 percentage points exist between national and international sources; furthermore, methodological shortcomings were identified, including the publication of the same indicator under different identification codes with slightly different values, the absence of regionally disaggregated tourism data, and a time lag in data publication. The findings can serve as a basis for developing practical recommendations to improve the tourism statistics system.

Kirish

Jahon xo‘jalik aloqalari rivojlanishining hozirgi bosqichida turizm xizmatlari eksporti mamlakatlarning tashqi savdo tarkibini diversifikatsiya qilish, valyuta tushumlarini oshirish va bandlikni ta’minlashning muhim manbalaridan biriga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023–yil 11–sentabrdagi PF–158–son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida [16] turizm xizmatlari eksportini 5 milliard AQSH dollarigacha, jumladan, tibbiyot va ta’lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard AQSH dollarigacha yetkazish strategik vazifa etib belgilangan. Bunday ambitsiyali maqsadlarga erishishning muvaffaqiyati, birinchi navbatda turizm sohasidagi jarayonlarni to‘g‘ri va ishonchli baholay oladigan statistik tizimning mavjudligiga bog‘liq.

Turizm – bir vaqtning o‘zida bir qancha iqtisodiyot tarmoqlari kesimida namoyon bo‘ladigan “ko‘ndalang” soha bo‘lgani sababli, uni an’anaviy tarmoq statistikasi vositalari bilan to‘liq va aniq o‘lchash obyektiv qiyinchiliklarga duch keladi. Aynan shu sabab Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan Turizm yordamchi hisobi metodologiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u “Milliy hisoblar tizimi – 2008” konsepsiyalariga asoslanadi. Biroq, amaliyotda milliy TSA ma’lumotlari, to‘lov balansining “Travel” moddasi bo‘yicha ma’lumotlar hamda UNWTO xalqaro ma’lumotlar bazasida keltirilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasida tizimli tafovutlar kuzatiladi, bu esa qaror qabul qiluvchilar va tadqiqotchilar uchun ma’lumotlarning qaysi biriga tayanish lozimligi masalasini keltirib chiqaradi.

Global miqyosda turizmning iqtisodiy ahamiyati barqaror o‘sib bormoqda. Butunjahon sayohat va turizm kengashi ma’lumotlariga ko‘ra, 2018–yilda sayohat va turizm sohasi jahon YaIMining 10,4 foizini tashkil etgan va dunyodagi har o‘n ish o‘rnidan bittasini ta’minlagan.

Turizmning to‘g‘ridan–to‘g‘ri hissasi jahon YaIMining 3,2 foiziga teng bo‘lgan. Xalqaro turizm eksporti esa 1643,2 mlrd. AQSH dollarini, ya’ni jahon eksportining 6,5 foizini tashkil etgan [19]. Bunday miqyosdagi iqtisodiy oqimlarni aniq va ishonchli o‘lchash zarurati xalqaro miqyosda ham milliy miqyosda ham turizm statistikasi metodologiyasini uzluksiz takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekistonda qo‘llanilayotgan turizm eksportini statistik baholash metodlarini tizimli tahlil qilish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda ma’lumotlar ishonchliligini oshirish yo‘llarini belgilash dolzarb ilmiy–amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot gipotezasi sifatida, O‘zbekistonda turizm xizmatlari eksportini baholashda qo‘llaniladigan milliy (TSA) va xalqaro statistik manbalar o‘rtasida – ularning metodologik jihatdan xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilganligiga qaramay – amaliyotda sezilarli miqdoriy va tarkibiy tafovutlar mavjud bo‘lib, bu tafovutlar ma’lumotlar boshqaruvi tizimidagi aniq, bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan kamchiliklar bilan bog‘liq.

Adabiyotlar tahlili

Turizmning milliy iqtisodiyotga ta’sirini statistik baholash muammosi xalqaro ilmiy adabiyotda bir necha yo‘nalishda yoritilgan. Shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: (a) TSA metodologiyasining nazariy asoslarini o‘rganuvchi ishlar; (b) TSAni tanqidiy baholovchi va uning cheklovlarini ko‘rsatuvchi ishlar; (c) turizm eksporti va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik tekshiruvchi ishlar.

(a) guruhga oid tadqiqotlarda Ntibanyurwa [1, 5–b.] turizmning iqtisodiyotga to‘g‘ridan–to‘g‘ri, bilvosita va induktsiyalangan ta’sirlarini farqlash zarurligini asoslab, bunday tarkibiy tahlilning aynan TSA metodologiyasi orqali amalga oshirilishini ko‘rsatadi. Bu tasnif hozirgi tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi. Lejarraga va Walkenhorst [2] o‘z tadqiqotida tabiiy resurslarga boy mamlakatlarning turizmga ixtisoslashuvi iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, biroq bu ta’sirni aniq o‘lchash uchun tarmoqlar aro savdo va milliy hisoblar ma’lumotlarining o‘zaro moslashtirilishi zarurligini ko‘rsatib o‘tadi. Mazkur tadqiqotda aniqlangan TSA va to‘lov balansi o‘rtasidagi metodologik uyg‘unlashtirish zarurati bilan bevosita bog‘liq. Brau, Lanza va Pigliaru [3] xalqaro qiyosiy tahlil asosida, turizmga ixtisoslashgan mamlakatlarning iqtisodiy o‘sish sur’ati boshqa mamlakatlarga qaraganda yuqoriroq bo‘lishini ko‘rsatgan, biroq bu bog‘liqlikning kuchi institutsional sifat ko‘rsatkichlari bilan bevosita bog‘liqligini ta’kidlaydi.

(b) guruhga oid ishlar ushbu tadqiqot uchun alohida metodologik ahamiyatga ega. Smeral [4, 94–b.] Avstriya va uning ikkita federal yeri misolida TSA asosidagi hisob–kitoblarda turizmning bilvosita ta’sirlari e’tiborga olinmasa, mintaqaviy va milliy turizm YaIMi tizimli ravishda kam baholanishini ko‘rsatgan. Rezidentlarning ishbilarmonlik safarlari hisobga olingan taqdirda ham bu kam baholash bartaraf etilmasligini isbotlagan. Libreros, Massieu va Meis [5] mamlakatlar bo‘yicha TSA joriy etish jarayonini tahlil qilib, 2006–yilga kelib 60 dan ortiq mamlakat milliy darajada TSA’ni qo‘llay boshlaganini, biroq ularning aksariyatida hisoblash metodikasi va ma’lumot manbalari sezilarli darajada farqlanishini aniqlagan . Ushbu tadqiqotda aniqlangan milliy va xalqaro manbalar o‘rtasidagi tafovutlarning nafaqat O‘zbekistonga xos, balki TSA metodologiyasining umumiy xususiyati ekanligini tasdiqlaydi.

TSAning hududiy darajaga tatbiq etilishi masalasi alohida ilmiy munozara predmeti hisoblanadi. Jones va Munday [6] TSAni mintaqaviy darajaga kengaytirishning asosiy rivojlanish muammolarini ko‘rib chiqib, standart TSA strukturasidagi cheklovlar siyosat uchun foydali tahlilni qiyinlashtirishini ko‘rsatadi va muqobil, soddalashtirilgan yondashuvlarni taklif qiladi. Frenţ [7] Ruminiya misolida yuqoridan–pastga yondashuv asosida, mavjud ta’minot tomonidagi ko‘rsatkichlar yordamida hududiy TSAni shakllantirish mumkinligini amaliy tarzda ko‘rsatib bergan. O‘zbekistonda hududiy TSA yo‘qligi texnik emas, balki institutsional – siyosiy tanlov natijasi ekanligi uchun uslubiy asos vazifasini o‘taydi. Ular hududiy TSAni to‘liq so‘rovnoma infratuzilmasisiz ham, mavjud ta’minot ko‘rsatkichlari asosida qisman shakllantirish mumkinligini isbotlaydi.

(c) guruhga oid ishlar orasida turizm eksporti va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik “turizmga asoslangan o‘sish gipotezasi” va Grenjer sabab – oqibat tahlili usullaridan foydalanib, tovar eksporti bilan bir qatorda turizm eksportining ham uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatgan. Ta’sirning kuchi mamlakatning iqtisodiy tuzilmasiga qarab farq qilishini ta’kidlaydi. Ushbu topilma shuni ko‘rsatadiki, turizmga asoslangan o‘sish gipotezasini O‘zbekiston misolida empirik tekshirish uchun, avvalo, ishonchli va uzoq vaqt qatoriga ega statistik baza zarur – bu esa mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyatini yana bir bor asoslaydi.

MDH davlatlar olimlaridan Qasimov [9] tomonidan olib borilgan tadqiqotda Ozarbayjon Respublikasi misolida turizm xizmatlari eksportining umumiy xizmatlar eksportidagi ulushi Jahon banki va UNWTO ma’lumotlari asosida tahlil qilingan. Milliy statistika qo‘mitasi, UNWTO va Trademap kabi turli manbalardan olingan ma’lumotlarning parallel qo‘llanilishi zarurligi asoslab berilgan – bu yondashuv mazkur tadqiqotda ham metodologik namuna sifatida qo‘llanilgan. OECD [10] hisobotida esa rivojlangan mamlakatlar tajribasida turizm siyosati va statistikasi o‘rtasidagi institutsional bog‘liqlik tahlil qilinib, statistik ma’lumotlarning siyosat qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi uchun ularning o‘z vaqtida va tushunarli shaklda taqdim etilishi zarurligi ta’kidlanadi.

Milliy TSA tizimi “Turizm statistikasi bo‘yicha xalqaro tavsiyalar – 2008” [11] va “Turizm yordamchi hisoblari: tavsiya qilingan uslubiy asos – 2008” xalqaro standartlari asosida O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi [17] tomonidan joriy etilgan bo‘lib, 2023–yildan buyon muntazam e’lon qilinib kelinmoqda. Shunga qaramay, yuqorida ko‘rib chiqilgan xalqaro adabiyotdan farqli o‘laroq, O‘zbekiston TSA tizimining amaliyotga tatbiq etilishi, uning xalqaro manbalar bilan mosligi va institutsional kamchiliklari bo‘yicha ilmiy–tanqidiy tahlillar hozircha milliy ilmiy adabiyotda deyarli uchramaydi. Mazkur maqola xalqaro adabiyotda ishlab chiqilgan tanqidiy–baholash yondashuvlarini birinchi marta O‘zbekiston TSA tizimiga tatbiq etadi.

Turizm xizmatlari eksportini statistik baholash muammosini to‘g‘ri tushunish uchun, turizmning iqtisodiyotga ta’sir mexanizmini nazariy jihatdan ko‘rib chiqish zarur. Ilmiy adabiyotda bu ta’sir odatda uch bosqichga ajratiladi: to‘g‘ridan–to‘g‘ri (direct), bilvosita (indirect) va induktsiyalangan (induced) ta’sirlar [1, 5–b.]. To‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir – turistlar tomonidan mehmonxona, restoran, transport va boshqa turizmga xos xizmatlarga qilingan xarajatlarning shu tarmoqlar daromadiga bevosita aylanishini anglatadi. Bilvosita ta’sir – turizmga xos tarmoqlarning o‘z faoliyati uchun boshqa tarmoqlardan (masalan, qishloq xo‘jaligi, qurilish materiallari ishlab chiqarish) xomashyo va xizmatlar sotib olishi natijasida yuzaga keladigan qo‘shimcha daromadni bildiradi. Induktsiyalangan ta’sir esa turizm sohasida band bo‘lgan xodimlarning o‘z ish haqlarini mahalliy iste’mol bozorida sarflashi orqali yuzaga keladigan ikkilamchi talab o‘sishini ifodalaydi. Aynan mana shu uch bosqichli tarkibni izchil o‘lchash zarurati Turizm yordamchi hisobi (TSA) metodologiyasining vujudga kelishiga asosiy sabab bo‘lgan, chunki an’anaviy tarmoq statistikasi (masalan, faqat mehmonxona xo‘jaligi statistikasi) bu uch bosqichning faqat birinchisini, ya’ni to‘g‘ridan–to‘g‘ri ta’sirni qisman qamrab oladi, xolos. Biroq Smeral [4, 94–b.] ko‘rsatganidek, standart TSA metodologiyasining o‘zi ham faqat to‘g‘ridan–to‘g‘ri ta’sirni o‘lchashga mo‘ljallangan bo‘lib, bilvosita va induktsiyalangan ta’sirlarni faqat kirish–chiqish (I–O) yoki hisoblanadigan umumiy muvozanat (CGE) modellari orqali baholash mumkin – bu esa TSA ma’lumotlarini talqin

qilishda alohida ehtiyotkorlikni talab qiladigan muhim metodologik chegaradir.

Turizmning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini shartlovchi omillar borasida ham keng ilmiy munozara mavjud. Infratuzilma sifati va texnologik rivojlanish darajasi turizm xizmatlari savdosining asosiy belgilovchi omili sifatida ko‘rsatiladi, shuningdek rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish darajasining turistlarni jalb qilishdagi ahamiyati rivojlangan mamlakatlarga qaraganda yuqoriroq ekanligi aniqlangan [2]. Bundan tashqari, institutsional sifat ko‘rsatkichlari – davlat organlari faoliyatining samaradorligi, huquqning ustuvorligi, siyosiy barqarorlik va korrupsiyaning past darajasi – turizm iqtisodiyotining rivojlanishida muhim rol o‘ynashi asoslab berilgan [2; 3]. Bu nazariy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, turizm statistikasi nafaqat pul ko‘rinishidagi oqimlarni, balki ularni shakllantiruvchi institutsional va infratuzilmaviy muhitni ham bilvosita aks ettirishi lozim – bu esa statistik baholash metodlarini tanlashda va talqin qilishda hisobga olinishi zarur bo‘lgan muhim metodologik jihatdir.

Turizm sohasini rivojlantirishda davlatning roli masalasida ham nazariy adabiyotda muhim xulosalar mavjud. Soliq va bojxona imtiyozlari, davlat subsidiyalari hamda davlat–xususiy sheriklik mexanizmlari turizm investitsiyalarini rag‘batlantirishning samarali vositalari sifatida ko‘rsatiladi [10], ayni paytda bunday imtiyozlarning samaradorligi bo‘yicha tadqiqotchilar o‘rtasida yagona fikr mavjud emasligi ham qayd etiladi. Shuningdek, turizmga aloqador barcha manfaatdor tomonlarni birlashtiruvchi turizm klasterlarini shakllantirish g‘oyasi alohida ta’kidlanadi [9] – bunday klasterlar davlat tomonidan rag‘batlantirilgan taqdirda ancha samarali faoliyat ko‘rsatishi mumkinligi asoslab berilgan. Ushbu nazariy xulosa O‘zbekiston Respublikasi “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasida nazarda tutilgan “turistik zonalar va klasterlarni rivojlantirish” siyosati yo‘nalishi [15] hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan 30 ta yirik turizm klasterini tashkil etish vazifasi [16] bilan bevosita uyg‘unlashadi. Biroq yuqorida ta’kidlanganidek bunday klasterlarning statistik monitoringi uchun hududiy TSA ma’lumotlarining yo‘qligi jiddiy to‘siq bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotning maqsadi – O‘zbekistonda turizm xizmatlari eksportini statistik baholashda qo‘llanilayotgan mavjud metodlarni tizimli tahlil qilish, ularni xalqaro amaliyot bilan solishtirish hamda amaldagi kamchiliklarni aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1) turizm eksportini baholashning milliy va xalqaro metodlarini tavsiflash;

2) 2019–2024–yillar bo‘yicha mazkur manbalardagi ko‘rsatkichlarni o‘zaro solishtirish;

3) aniqlangan tafovutlar sabablarini tahlil qilish;

4) statistik tizimni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda quyidagi to‘rtta ma’lumot manbasidan foydalanildi:

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining Turizm yordamchi hisobi (TSA) ma’lumotlar bazasi – 2019–2024–yillar uchun, orqali e’lon qilingan 12 ta asosiy indicator;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining to‘lov balansi statistikasi – IMF BPM6 standart taqdimoti asosida, 2005–2026–yillar choraklik ma’lumotlari, “Safarlar” moddasi bo‘yicha 84 ta choraklik kuzatuv;

UNWTO Tourism Dashboard ma’lumotlar bazasi – kirishga oid turizm xarajatlari va turistlar soni bo‘yicha O‘zbekiston uchun 1995–2024–yillar oralig‘idagi yillik qatorlar;

BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari monitoring tizimidagi 8.9.1–indikator – O‘zbekiston uchun 2020–2023–yillar bo‘yicha rasman taqdim etilgan 4 ta yillik qiymat. Tanlanma davri (2019–2024) O‘zbekiston TSA tizimining birinchi to‘liq ma’lumotlar seriyasi e’lon qilingan davrga to‘g‘ri kelishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi to‘rtta o‘zaro bog‘liq bosqichdan iborat bo‘lib, har biri quyida operatsion tarzda tavsiflangan.

Har bir yil (t) uchun milliy TSA ko‘rsatkichi (X_{TSA},t) va unga konseptual jihatdan mos keluvchi xalqaro ko‘rsatkich ($X_{xalqaro},t$) yonma–yon jadvalga joylashtirildi. Ikkala qator uchun mutlaq farq $\Delta t = X_{xalqaro},t - X_{TSA},t$ va nisbiy farq δ_t (%) = (Δt / X_{TSA},t) × 100 formulalari bo‘yicha hisoblandi. Nisbiy farq $|\delta_t|$ > 5% bo‘lgan holatlar “ahamiyatli tafovut” sifatida belgilandi.

Milliy TSA ko‘rsatkichi mustaqil, milliy statistika idorasiga bog‘liq bo‘lmagan xalqaro manba bilan solishtirildi. Muvofiqlik koeffitsienti (K) = (1 − o‘rtacha $|\delta_t|$/100) × 100% formulasi bo‘yicha hisoblandi; 2020–2023–yillar uchun o‘rtacha $|\delta_t|$ = 4% ni tashkil etib, K = 96,0% ni berdi, bu esa DQAF freymvorkining “aniqlik va ishonchlilik” mezoniga ko‘ra “yuqori muvofiqlik” darajasiga to‘g‘ri keladi.

Har bir ko‘rsatkich uchun yillik o‘sish sur’ati T_t (%) = ((X_t / X_{t-1}) − 1) × 100 formulasi bo‘yicha hisoblandi. 2020–yildagi pandemik pasayish va undan keyingi tiklanish sur’atlarini miqdoriy jihatdan aniqlash imkonini berdi. Bundan tashqari, 2019–2024–yillar uchun o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati CAGR = $((X_{2024}/X_{2019})^{1/5} - 1) \times 100$ formulasi bo‘yicha hisoblandi.

Tahlil qilingan barcha 12 ta TSA indikatorining metama’lumot tarkibi 9 ta oldindan belgilangan elementga nisbatan ikkilik kodlash usulida baholandi, element mavjud bo‘lsa 1, mavjud bo‘lmasa 0 qiymati berildi. Barcha pul ko‘rinishidagi ko‘rsatkichlar taqqoslash imkoniyatini ta’minlash maqsadida, zarur hollarda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli davrdagi rasmiy AQSH dollari kursi yordamida milliy valyutaga yoki aksincha konvertatsiya qilingan.

Tahlil davomida foydalanilgan uchta asosiy manba milliy TSA, to‘lov balansi va UNWTO ma’lumotlar bazasi bir–biridan bir qator muhim metodologik jihatlar bo‘yicha farqlanadi, bu esa ularni to‘g‘ridan–to‘g‘ri solishtirishda ehtiyotkorlikni talab qiladi. To‘lov balansining “Safarlar” (Travel) moddasi xalqaro yo‘lovchi tashish xizmatlarini o‘z ichiga olmaydi. TSA esa transport xizmatlarini turizm iste’molining tarkibiy qismi sifatida ko‘radi – bu farq Smeral [4, 94–b.] tomonidan ko‘rsatilgan bilvosita ta’sirlarni e’tiborga olmaslik natijasida yuzaga keladigan kam baholash muammosining konkret ko‘rinishidir. TSA milliy valyutada, to‘lov balansi va UNWTO ma’lumotlari esa odatda AQSH dollarida taqdim etiladi. TSA yillik asosda, to‘lov balansi esa choraklik asosda shakllantiriladi, bu esa ularni birlashtirib tahlil qilishda mos keluvchi davrlashtirish zarurligini talab qiladi.

Natijalar

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tomonidan e’lon qilingan TSA ma’lumotlariga ko‘ra, 2019–2024–yillarda turizm iste’moli va uning YaIM/YaQQdagi ulushi quyidagi dinamikada shakllangan (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekistonda turizm iste’moli va uning makroiqtisodiy ulushi[1] (2019–2024–yy).

Ko‘rsatkich	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Kirishga oid turizm iste’moli, mlrd. so‘m	11639,3	2490,0	4492,9	17776,7	25169,2	34037,6
Ichki turizm xarajatlari, mlrd. so‘m	22267,6	4797,6	5804,7	6936,6	7235,9	41330,7

[1] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi TSA ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Ko‘rsatkich	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Chiqishga oid turizm xarajatlari, mlrd. so‘m	14633,3	4338,4	9437,9	15530,7	15498,1	17494,4
Mamlakat ichidagi turizm iste’moli – jami, mlrd. so‘m	50445,8	9323,6	17313,3	33092,0	40534,3	76554,1
To‘g‘ridan–to‘g‘ri turizmda yaratilgan YaIM, mlrd. so‘m	22293,5	3469,8	8208,9	16064,2	16330,9	38139,6
Turizmning YaIMdagi ulushi, %	3,6	0,5	1,0	1,5	1,3	2,5
Turizm tarmoqlaridagi bandlik, mln. kishi–soat	390,7	281,2	330,7	355,7	374,4	416,2

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2020–yilda COVID–19 pandemiyasi tufayli barcha ko‘rsatkichlarda keskin pasayish kuzatilgan. 2021–2022–yillarda bosqichma–bosqich tiklanish, 2023–2024–yillarda esa nafaqat pandemiyagacha bo‘lgan darajaga yetish, balki undan sezilarli yuqori ko‘rsatkichlarga chiqish qayd etilgan. Diqqatga sazovor jihat shundaki, 2024–yilda ichki turizm xarajatlarining keskin o‘sishi qayd etilgan, bu holat alohida metodologik izohni talab qiladi. 2024–yil uchun hisoblash uslubiyatida qo‘shimcha tuzatishlar kiritilgani bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin – bu esa keyingi bo‘limda muhokama qilinadigan metodologik kamchiliklardan biridir.

Turizmning YaIMdagi ulushi ko‘rsatkichi bo‘yicha O‘zbekiston Statistika agentligining TSA ma’lumotlari BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasidagi 8.9.1–indikator bilan solishtirilganda, quyidagi tafovutlar aniqlandi.

2–jadval

Turizmning YaIMdagi ulushi: milliy TSA va SDG 8.9.1 ko‘rsatkichlari qiyosi[2] (%)

Yil	Milliy TSA (1.01.06.0037)	SDG 8.9.1 (UNWTO)	Farq, f.b.
2020	0,5	0,52	0,02
2021	1,0	1,00	0,00
2022	1,5	1,61	0,11
2023	1,3	1,36	0,06

Ko‘rinib turibdiki, ikkala manba deyarli bir xil dinamikani aks ettirsa–da, mutlaq qiymatlarda muntazam ravishda kichik tafovutlar mavjud. UNWTO/SDG bo‘yicha ko‘rsatkich barcha holatlarda milliy TSA ko‘rsatkichidan teng yoki yuqori. Bunday tafovutning bir necha mumkin bo‘lgan sabablari bor: ma’lumotlarni UNWTO‘ga taqdim etish va milliy portalda e’lon qilish sanalari o‘rtasidagi farq; foizni yumaloqlashtirish uslubidagi farqlar; to‘g‘ridan–to‘g‘ri YaIM ulushi tushunchasining har ikki tashkilot tomonidan bir xilda talqin qilinmasligi ehtimoli.

Tadqiqot davomida yana bir muhim metodologik muammo aniqlandi: O‘zbekiston Statistika agentligi portalida turizmning YaIM/YaQQdagi ulushiga oid amalda bir xil mazmundagi uchta alohida indikator mavjud bo‘lib, ular bir-biridan sal farqli qiymatlarga ega (3-jadval).

3-jadval

2019–yil uchun turizmning YaIM/YaQQdagi ulushiga oid uchta indikatorning qiyosi[3] (%)

Indikator kodi	Nomi	2019–yil qiymati, %
1.01.06.0037	To‘g‘ridan–to‘g‘ri turizmda yaratilgan YaIMning YaIMdagi ulushi	3,6
1.01.06.0038	To‘g‘ridan–to‘g‘ri turizmda yaratilgan YaQQning YaQQdagi ulushi	3,7
1.01.06.0035	To‘g‘ridan–to‘g‘ri turizmda yaratilgan YaQQning YaIMdagi ulushi	3,5

Uch xil indikator nomlanishidan ko‘rinib turibdiki, ular metodologik jihatdan farqli tushunchalarni ifodalaydi, shu bois qiymatlarning bir–biridan farq qilishi o‘zi metodologik jihatdan asoslanishi mumkin. Biroq amaliyotda – xususan, ilmiy tadqiqotlar va ommaviy axborot vositalarida – bu uch ko‘rsatkich ko‘pincha farqlanmasdan, bir xil “turizmning YaIMdagi ulushi” sifatida iqtibos qilinadi, bu esa noto‘g‘ri talqin qilinish xavfini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, statistika portalida bir xil ma’lumotlar to‘plamining bir nechta marta takroran joylashtirilgani ham aniqlandi, bu esa foydalanuvchi uchun qaysi versiya so‘nggi va rasmiy ekanligini aniqlashni qiyinlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarni 14 ta hudud kesimida 2010–2025–yillar uchun muntazam e’lon qiladi. Biroq turizm yordamchi hisobi ko‘rsatkichlarining birortasi ham hududiy kesimda taqdim etilmaydi. TSA ma’lumotlari faqat respublika miqyosida umumlashtirilgan holda e’lon qilinadi. Bu holat quyidagi amaliy cheklovlarni keltirib chiqaradi: birinchidan, qaysi hududlar turizm rivojlanishida yetakchi ekanligini, qaysilari qo‘shimcha davlat qo‘llab–quvvatlashiga muhtojligini statistik jihatdan asoslash imkoniyati cheklanadi; ikkinchidan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida nazarda tutilgan 30 ta yirik turizm klasterini shakllantirish samaradorligini hududlar kesimida monitoring qilish uchun zarur statistik baza mavjud emas.

TSA ko‘rsatkichlarining metadatasini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, 2024–yil uchun ma’lumotlar “dastlabki” maqomida e’lon qilingan bo‘lib, aksariyat indikatorlarning “so‘nggi o‘zgartirilgan sana”si 2025–yil dekabr oyiga to‘g‘ri keladi. Bu vaqt lagi xalqaro amaliyotda odatiy hisoblanadi, biroq tezkor iqtisodiy siyosat qarorlari qabul qilish uchun choraklik yoki hech bo‘lmaganda operativ ma’lumotlarning yo‘qligi amaliy kamchilik hisoblanadi. Solishtirish uchun, to‘lov balansining “Safarlar” moddasi choraklik asosda va nisbatan qisqaroq lag bilan e’lon qilinadi, biroq bu ko‘rsatkich TSA kabi tarkibiy tafsilotni bermaydi.

O‘zbekiston – 2030 strategiyasini amalga oshirish jarayonida strategik maqsadlarga erishish monitoringini raqamlashtirish alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan – bu tegishli me’yoriy–huquqiy hujjatlarda strategiya ko‘rsatkichlarining raqamli platforma orqali real vaqt rejimida kuzatib borilishi lozimligi ko‘zda tutilishida o‘z aksini topgan. Bunday raqamlashtirish tashabbusi, agar u turizm sohasiga ham tatbiq etilsa, ushbu tadqiqotda aniqlangan bir qator kamchiliklarni – xususan, ma’lumotlarni e’lon qilishdagi vaqt lagi hamda turli manbalar o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosini – tizimli hal etish uchun institutsional imkoniyat yaratadi. Shu bois,

[2] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va UNWTO/SDG global indikatorlar bazasi asosida muallif hisob–kitoblari
[3] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

turizm statistikasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar aynan shunday umumdavlat miqyosidagi raqamlashtirish tashabbuslari bilan uyg‘unlashtirilgan holda ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida qayd etilganidek, to‘lov balansining “Safarlar” moddasi xalqaro yo‘lovchi transporti xarajatlarini o‘z ichiga olmaydi, TSA esa ularni alohida tarkibiy qism sifatida hisobga oladi. Milliy TSA ma’lumotlariga ko‘ra, kirishga oid turizm iste’molining tarkibida transport xizmatlari 2024–yilda sezilarli ulushni tashkil etadi. Bu shuni anglatadiki, agar tadqiqotchi ehtiyotsizlik bilan to‘lov balansining “Safarlar” ko‘rsatkichini TSA’ning kirishga oid turizm iste’moli – jami ko‘rsatkichi bilan bevosita tenglashtirsa, natijada tizimli kam baholashga yo‘l qo‘yilishi mumkin. Bu – amaliyotchi tadqiqotchilar va davlat organlari uchun alohida ogohlantirish sifatida ta’kidlanishi lozim bo‘lgan muhim metodologik xulosa bo‘lib, u Smeral [4, 94–b.] tomonidan boshqa mamlakatlar misolida ilgari surilgan bilvosita ta’sirlarni e’tiborga olmaslik tizimli kam baholashga olib keladi degan umumiy xulosaning O‘zbekiston kontekstidagi aniq tasdig‘i hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari monitoring tizimidagi 12.b.1–indikator mamlakatlarning TSA va SEEA jadvallarini qay darajada joriy etganligini kuzatib boradi. Ushbu indikator doirasidagi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston so‘nggi yillarda TSA jadvallarining asosiy qismini joriy etgan mamlakatlar qatoriga kiradi, biroq hududiy TSA modullari hali ishlab chiqilmagan. Bu holat, umuman olganda, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xos bo‘lgan tendensiya hisoblanadi – chunki hududiy TSA modeli metodologik jihatdan ancha murakkab bo‘lib, u qo‘shimcha so‘rovnoma infratuzilmasini talab qiladi. Shu bilan birga, ayrim mamlakatlar hududiy TSAni muvaffaqiyatli joriy etgan tajribaga ega, bu esa O‘zbekiston uchun ham uzoq muddatli istiqbolda erishish mumkin bo‘lgan maqsad sifatida qaralishi mumkin.

Turizmga xos bevosita hududiy ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa–da, O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining yalpi hududiy mahsulot (YaHM) va bandlik darajasi bo‘yicha hududlar kesimidagi ma’lumotlaridan bilvosita foydalanib, turizm salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarni taxminiy aniqlash mumkin. Xususan, aholi jon boshiga YaHM ko‘rsatkichi bo‘yicha Toshkent shahri va Navoiy viloyati respublika o‘rtachasidan sezilarli yuqori bo‘lib qolmoqda – 2024–yilda mos ravishda 98 440,5 va 120 222,2 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025–yilda bu ko‘rsatkichlar yanada o‘sib, mos ravishda 116 747,3 va 152 238,2 ming so‘mga yetgan. Ushbu ikki hududning barqaror yetakchiligi ularda iqtisodiy faollikning, jumladan turizm va unga aloqador xizmat ko‘rsatish sohalarining nisbatan yuqori rivojlanganligini bilvosita tasdiqlashi mumkin (4-jadval).

4-jadval

Aholi jon boshiga YaHM: tanlangan hududlar va respublika o‘rtachasi[4] (ming so‘m)

Hudud	2019	2022	2024	2025
O‘zbekiston Respublikasi (o‘rtacha)	18465,6	29226,7	41306,7	48816,4
Toshkent shahri	39120,4	61515,6	98440,5	116747,3
Navoiy viloyati	42902,1	75302,2	120222,2	152238,2
Surxondaryo viloyati (eng past)	10094,0	14700,1	19425,6	22223,4

Shunga qaramay, bunday bilvosita xulosalar turizmning aniq hissasini ajratib bera olmaydi, chunki yuqori YaHM boshqa omillar bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu holat yana bir bor hududiy TSA modulini joriy etish zarurligini metodologik jihatdan asoslaydi.

Alohida ta’kidlash joizki, ushbu tadqiqot yozilayotgan davrda hududiy YaHM va bandlik ko‘rsatkichlari uchun 2025–yil ma’lumotlari allaqachon rasman e’lon qilingan bo‘lsa–da, turizmga oid TSA ko‘rsatkichlarining eng so‘nggi yili hamon 2024–yilligicha qolmoqda. Ushbu holat 5–bo‘limda aniqlangan "ma’lumotlarni e’lon qilishdagi vaqt lagi" muammosining amaliy dalili sifatida xizmat qiladi: umumiy makroiqtisodiy statistika tizimiga qaraganda, turizm yordamchi hisobi kamida bir yilga ortiq lag bilan shakllantiriladi, bu esa uning mahalliy va davlat organlari tomonidan tezkor qaror qabul qilishda qo‘llanilish imkoniyatini sezilarli darajada cheklaydi.

Muhokama

Kirish qismida ilgari surilgan gipoteza – milliy va xalqaro statistik manbalar o‘rtasida amaliyotda sezilarli tafovutlar mavjudligi va ular aniq, bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan kamchiliklar bilan bog‘liqligi – tadqiqot natijalari bilan to‘liq tasdiqlandi. Xususan, 2-jadvalda keltirilgan miqdoriy tafovutlar, 3-jadvalda aniqlangan nomenklatura muammosi hamda 4–7–bo‘limlarda tavsiflangan tarkibiy va institutsional kamchiliklar gipotezaning har ikki qismini – ham tafovutlarning mavjudligini, ham ularning bartaraf etilishi mumkinligini – empirik jihatdan asoslab berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda turizm xizmatlari eksportini statistik baholash tizimi so‘nggi yillarda xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilgan holda sezilarli darajada rivojlangan bo‘lsada, u hali bir qator metodologik va amaliy kamchiliklardan xoli emas.

Milliy va xalqaro manbalar o‘rtasidagi kichik, ammo barqaror tafovutlar (2-jadval) ma’lumotlarning to‘liq sinxronlashtirilmaganidan dalolat beradi. Bu, Lejárraga va Walkenhorst [2] ta’kidlaganidek, turizm statistikasining ko‘p tarmoqli va ko‘p manbali tabiati bilan izohlanishi mumkin, shuningdek Libreros va boshqalar [5] ko‘rsatganidek, bu holat ko‘plab mamlakatlar uchun umumiy xususiyat hisoblanadi. Biroq bu tafovutlarni minimallashtirish uchun milliy statistika idorasi va UNWTO o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi jadvalini muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Bir xil mazmundagi ko‘rsatkichning uchta turli indikator kodi ostida, farqli qiymatlarda e’lon qilinishi (3-jadval) – bu O‘zbekistonga xos, nisbatan kamdan–kam uchraydigan amaliy muammo bo‘lib, u statistik portalning ma’lumotlar boshqaruvi tizimini takomillashtirishni talab qiladi. Har bir indikator uchun aniq va bir xil metadonli izohlar berish orqali bu muammoni bartaraf etish mumkin.

Mintaqaviy ma’lumotlarning yo‘qligi – bu, ehtimol, aniqlangan kamchiliklar ichida eng jiddiysi, chunki u “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida [16] belgilangan hududiy turizm klasterlarini rivojlantirish siyosatining samaradorligini statistik jihatdan baholash imkoniyatini butunlay cheklaydi. Jones va Munday [6] hamda Frenţ [7] ko‘rsatganidek, hududiy TSAni to‘liq so‘rovnoma infratuzilmasisiz, mavjud ta’minot tomonidagi ko‘rsatkichlar asosida ham qisman shakllantirish mumkin. Shu bois, Gruziya va Qozog‘iston kabi qo‘shni davlatlarning TSA/SEEA joriy etish tajribasini o‘rganish va hududiy TSA modullarini xuddi shunday yuqoridan–pastga yondashuv asosida bosqichma–bosqich joriy etish tavsiya etiladi.

Ma’lumotlarni e’lon qilishdagi vaqt lagi muammosini bartaraf etish uchun, xalqaro amaliyotda qo‘llaniladigan tezkor baholash usulini joriy etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi – bu usulda to‘lov balansi va chegara statistikasi kabi tezroq mavjud bo‘ladigan manbalar asosida TSA ko‘rsatkichlarining dastlabki bahosi hisobot yilidan keyingi 3–6 oy ichida e’lon qilinadi.

Yuqorida keltirilgan tahlil asosida, aniqlangan har bir muammoga mos tavsiya quyidagi jadvalda umumlashtirilgan (5-jadval).

[4] O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

5-jadval

Aniqlangan metodologik kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar[5]

Aniqlangan muammo	Tavsiya etilayotgan yechim
Milliy va xalqaro manbalar o‘rtasidagi tafovutlar	Statistika agentligi va UNWTO o‘rtasida ma’lumotlar taqdim etish jadvalini muvofiqlashtirish
Bitta ko‘rsatkichning turli kodlarda farqli qiymatda e'loni	Har bir indikator metadatasiga aniq qiyosiy izoh qo‘shish, portalda versiyalashni tartibga solish
Hududiy TSA ma’lumotlarining yo‘qligi	Hududiy TSA modulini bosqichma–bosqich joriy etish, pilot loyihani 2–3 yetakchi turistik viloyatda sinovdan o‘tkazish
Ma’lumotlarni e’lon qilishdagi vaqt lagi	Tezkor (flash) baholash uslubini joriy etish, choraklik dastlabki hisobotlar yuritish
TSA va BoP o‘rtasidagi kontseptual farqlarning ochiq izohlanmasligi	Rasmiy nashrlarda ikkala ko‘rsatkich orasidagi farqni tushuntiruvchi metodologik ilova chop etish

Tadqiqotning ilmiy–amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda aniqlangan tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Turizm vazirligi hamda tegishli tadqiqot institutlari tomonidan turizm statistikasi tizimini takomillashtirish bo‘yicha amaliy chora–tadbirlar dasturini ishlab chiqishda bevosita qo‘llanilishi mumkin. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ushbu dissertatsiya tadqiqotining keyingi bosqichlarida – xususan, turizm eksportining YaIM, bandlik va to‘lov balansiga ta’sirini ekonometrik modellashtirishda – qaysi ma’lumot manbalariga qay darajada ishonish mumkinligini belgilashda uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda TSA hisoblash metodikasining ichki jarayonlarini, shuningdek hududiy TSA modelini ishlab chiqish imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish tavsiya etiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda turizm xizmatlari eksportini statistik baholash tizimining xalqaro standartlarga asosan mos kelishini, biroq amaliyotda ma’lumotlar ishonchliligi, o‘zaro muvofiqligi va hududiy tafsilotlilik nuqtai nazaridan bir qator takomillashtirishga muhtoj jihatlar mavjudligini ko‘rsatdi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan turizm xizmatlari eksportini 5 milliard AQSH dollarigacha yetkazish kabi ambitsiyali maqsadlarga erishish jarayonini samarali monitoring qilish uchun, birinchi navbatda, milliy va xalqaro ma’lumotlar o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash, indikatorlar nomenklaturasini soddalashtirish, hududiy TSA modulini joriy etish hamda ma’lumotlarni e’lon qilish operativligini oshirish bo‘yicha aniq chora–tadbirlar ko‘rish zarur. Ushbu yo‘nalishdagi keyingi tadqiqotlar turizm eksportining YaIM, bandlik va to‘lov balansiga ta’sirini ekonometrik modellashtirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Kelgusi tadqiqotlar quyidagi yo‘nalishlarda davom ettirilishi maqsadga muvofiq: turizm xizmatlari eksportining yalpi ichki mahsulot, bandlik va to‘lov balansiga ta’sirini ARIMA/VAR ekonometrik modellari yordamida chuqur tahlil qilish; mavjud hududiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida klaster tahlili o‘tkazib, turizm salohiyati bo‘yicha hududlarni tipologiyalashtirish; Ozarbayjon, Gruziya, Qozog‘iston kabi mintaqaviy hamkor davlatlarning turizm statistikasi va turizmni rivojlantirish siyosati tajribasini chuqurroq qiyosiy o‘rganish. Ushbu yo‘nalishlardagi natijalar, o‘z navbatida, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan turizm sohasidagi strategik maqsadlarga erishish jarayonini ilmiy jihatdan asoslangan holda kuzatib borish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ntibanyurwa, A. (2006). Tourism as a factor of development. WIT Transactions on Ecology and the Environment, 97, 3–12.
2. Lejárraga, I., & Walkenhorst, P. (2013). Economic policy, tourism trade and productive diversification (CEPII Working Paper No. 2013–07). CEPII.
3. Brau, R., Lanza, A., & Pigliaru, F. (2003). How fast are tourism countries growing? The cross–country evidence (CRENoS Working Paper No. 2003/12). Centre for North South Economic Research.
4. Smeral, E. (2006). Tourism satellite accounts: A critical assessment. Journal of Travel Research, 45(1), 92–98.
5. Libreros, M., Massieu, A., & Meis, S. (2006). Progress in tourism satellite account implementation and development. Journal of Travel Research, 45(1), 83–91.
6. Jones, C., & Munday, M. (2010). Tourism satellite accounts for regions? A review of development issues and an alternative. Economic Systems Research, 22(4), 341–358.
7. Frenţ, C. (2023). Regionalizing a tourism satellite account: A top–down approach based on existing data sources. Argumenta Oeconomica, 1(50), 205–226.
8. Riera i Prunera, C., Artís Ortuño, M., Cortés–Jiménez, I., & Pulina, M. (2009). Tourism and exports as a means of growth (IREA Working Paper No. IR09/10). University of Barcelona, Research Institute of Applied Economics.
9. Qasimov, A. G. (n.d.). Tourism export increasing ways. [Nashr ma’lumotlari muallif tomonidan aniqlashtirilishi lozim].
10. OECD. (2018). Tourism trends and policies 2018: Highlights. OECD Publishing.
11. United Nations. (2008). International Recommendations for Tourism Statistics 2008 (IRTS 2008). United Nations Statistics Division.
12. International Monetary Fund. (2009). Balance of Payments and International Investment Position Manual (6th ed., BPM6). IMF.
13. World Tourism Organization (UNWTO). (2024). UNWTO Tourism Dashboard: Methodological notes. UNWTO.
14. World Bank. (2024). World Development Indicators. https://data.worldbank.org
15. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. (2019). Turizm to‘g‘risida: O‘RQ–549–son, 2019–yil 18–iyul (keyingi tahrirlar bilan). 6–modda.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risida: PF–158–son Farmon, 2023–yil 11–sentabr.
17. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2025). Turizm yordamchi hisobi ma’lumotlar bazasi, 1.01.06–kodli seriya. https://lib.stat.uz
18. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). To‘lov balansi statistikasi (BPM6 standart taqdimot). https://cbu.uz
19. World Travel and Tourism Council (WTTC). (2019). Travel & Tourism: Economic Impact 2019. WTTC.

[5] Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan